



## HAJVIY MATNLAR TARJIMASINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**U.R.Yo'ldoshev**

O'zDJTU dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hajviy matn, uning asosiy mohiyati, hajviy matn va uning tarjimasida pragmatik mazmunni saqlab qolish masalalari, pragmatik tasirni qayta ifodalash muammolar va ularning yechimlari haqida batafsil so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, hajviy matn, pragmatika, kommunikativ-pragmatik tasir, xususiyat, asliyat matn, tarjima matn.

**Annotation:** The article deals with humorous text, its main content, the issues of keeping pragmatic content in translating humorous texts, the problems of re-expressing pragmatic effect.

**Key words:** translation, humorous text, pragmatics, communicative-pragmatic effect, peculiarity, source text, target text.

**Аннотация:** В статье рассматривается юмористический текст, его основное содержание, вопросы сохранения pragматического содержания при переводе юмористических текстов, проблемы перевыражения pragматического эффекта.

**Ключевые слова:** перевод, юмористический текст, pragmatika, коммуникативно-прагматический эффект, особенность, исходный текст, целевой текст.

“Humour” (hajv) termini asli lotincha “suyuqlik” ma’nosini anglatuvchi “umor” so‘zidan kelib chiqqan va tibbiyot termini sifatida qo‘llangan[2, 13]. Bu termin bizgacha yetib kelgan, ammo o‘zining asl ma’nosini mutloq yo‘qotgan. Chaironing ta’kidlashicha, hozirgi kunda u “panadagi termin” bo‘lib “komediya”, “kulgi”, “kulgili” kabi tushunchalarni qamrab oladi [2, 14]. Fikrimizcha, Chairo ta’kidlagan “kulgi”, “komediya”, “kulgili” tushunchalari insonlarning og‘zaki va yozma nutqidagi matnlarda aks etadi va bunday matnlar hajviy matnlar deb ataladi. Hajviy matnlarni tarjima qilish borasida tadqiqot olib borishda “hajv” tushunchasining mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da hajvgaga quyidagicha ta’rif berilgan: “ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, mas’haralab aytilgan (yo‘zilgan) gap, jumla, bayt, asar” [7, 477]. Macmillan izohli lug‘atida “yumorning biror holat yoki tadbirni kulgili qilish sifati, kulgili aytilgan yoki qilingan narsa, biror narsaning kulgiligini bilish qobiliyati” kabi ta’riflarni uchratish mumkin [4, 740]. Oxford Advanced Learner’s Dictionary lug‘atida esa “umor – biror narsadagi uni kulgili yoki qiziqarli qilib ko‘rsatadigan sifat, kulgili narsalarga kulish qobiliyati” [1, 761] deya izoh beriladi. Demak, mohiyatan hajvning o‘zbek va ingliz xalqlari tafakkurida o‘ziga xos farq va o‘xshashliklari mavjud. Bu ikki tildagi o‘xshashlik



hajvning bosh mezoni biror narsani kulgili qilib aytib berish bo‘lsa, farqli jihatni esa, inglizlar uchun hajvning mohiyati odatiy holat yoki tadbirni kulgili qilish qobiliyati hisoblansa, o‘zbeklar odatda ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olishadi.

Alison Ros hajv haqida bir necha fikrlar aytib o‘tadi: “biror shaxsni kuldirish yoki tabassum hadya etish jarayoni”, “hajv jamiyatda tez-tez uchraydigan hodisa va inson ta’sirining juda muhim qismi xisoblanadi”, “hajv ta’sir kuchiga ega, u siyosiy satirada hazil orqali do’stlik o‘rnatish va boshqa munosabatlarni saqlash yo‘li sifatida foydalaniladi” [5, 1-8]. Demak, hajv ijtimoiy mohiyatga ega. Hajv kishilik jamiyatidan tashqarida paydo bo‘lishi, yashashi mumkin emas. U xalq ichida, omma orasida vujudga keladi, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ma’lum vazifani bajarishga qaratilgan bo‘ladi. Haqiqiy hajviya inson uchun, jamiyat uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham uning ijtimoiy mohiyatisiz, xalqdagi rolisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mana shunday faktorlar hajviy matnlar tarjimasining murakkabligini anglatadi. Hajviy matnlar tarjimasidagi eng asosiy qiyinchiliklardan biri – pragmatik qiyinchiliklardir.

V.N. Komissarovning ta’kidlashicha, har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o‘zida mujassam etadi. Ular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar bo‘lib, birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog‘lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o‘rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir [6, 101]. Demak, til belgisi semantik, sintaktik va pragmatik ma’nolariga ko‘ra farqlanadi.

Tarjimonlar nafaqat lingvistik va madaniy belgilar tarkib topgan, balki pragmatik belgilarni ham o‘zida aks ettirgan matnlar bilan ishlaydi. Aksariyat hollarda tarjima matnlarida pragmatik jihatlarga qaraganda madaniy va lingvistik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Badiiy matndagi pragmatik mazmun va xususiyatlarni hisobga olmaslik natijasida tarjima qilinayotgan matnda pragmatik muammolar yuzaga keladi.

Matnning pragmatik mazmuni deganda matnda aks etgan muloqot jarayonida axborot almashinuv vositalarining uyg‘unligi nazarda tutiladi. Axborot almashinuvi va muloqot qilish singari vazifalar matn mazmunida uyg‘unlashadi. Zoran, pragmatik mazmun tushunchasining umumiyligi chegaralari lisoniy belgilarning nutq jarayonida funksiyaga kirishuvi, shuningdek, nutq faoliyati jarayonida bildirilgan fikrlarning o‘zaro munosabatlari, nutq aktlaridagi kommunikativ vaziyat sifatida belgilanishi mumkin [3, 8]. Pragmatik mazmun nutqiy vaziyatda muloqot ishtirokchilarining til vositalaridan qay darajada samarali foydalanish natijasida o‘zining pragmatik maqsadiga erishishni anglatadi. Asliyat matnidagi pragmatik mazmunni tarjima matniga ham olib o‘tish bevosita tarjimaning kommunikativ-pragmatik ifodasi namoyon bo‘lishini anglatadi.

A. Noybert tarjimada pragmatik munosabatlarning 4 ta darajasini namoyon qiluvchi nazariyani taklif etadi:

1. yuksak darajada tarjima qilinishlik (ilmiy-texnikaviy adabiyot va boshqalar);
2. muvaffaqiyatli (boshqa tilli auditoriya uchun axborot-tahliliy material);

3. cheklovlar bilan matnni tarjima qilish (badiiy adabiyot tarjimasi);

4. tarjimada pragmatik originallikni qayta yaratishning deyarli mumkin emasligi (asliyat matn maxsus til sohiblariga mo‘ljallangan hollarda).

Nazariyaning to‘rtinchchi bandi odatda eng muammoli hisoblanadi. Tarjimaning pragmatik qiyinchiliklari asliyat matnining janr xususiyatlari va tarjima matni retseptorining ijtimoiy kategoriysi bilan bevosa bog‘liqdir. Asliyat matnining pragmatik potensialida tarjimonlar faktlar, voqealar, noxush holatlar, tarixiy faktlar, ma’naviy qadriyatlar, turmush tarzi, odatlar, urflar, milliy taomlarning nomlari, kiyim-kechaklar va boshqalarni tasvirlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda tarjima retseptori matnni to‘g‘ri tushunishi uchun pragmatik farqlarga o‘zgartirishlar kiritilishi lozim.

Hajviy matn tarjimasidagi pragmatik muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) tavtologiya bo‘lmashiyatigi uchun o‘zbek va ingliz tillarida obyektlarni qayta-qayta yodga olish, sinonimlar yoki kishilik olmoshlaridan foydalanish;

2) til uslubining o‘ziga xosligi. Juda ko‘p hollarda nutq uslubi tarjimani mutanosibligini tanlashga ta’sir etadi. O‘zbek tilida murojaat shakllarida inson ismiga titullar qo‘sib aytilmaydi. Ingliz tilida esa bu holat mavjud:

3. vaqt hisobining tillarda turlicha bo‘lishi: O‘zbek tilida: go‘dak bir yarim yashar; Ingliz tilida: 18-month child;

4. Har bir tilda muayyan vaziyatlar uchun muqim bo‘lgan tushunchalar, frazalar yoki klishelar mavjud: muddati = best before;

Tarjimaning pragmatik jihatdan adekvatligiga erishishda til sohiblarining alohida guruhlari nutqidagi farqlarga sabab bo‘luvchi sotsiolingvistik faktorlar muhim rol o‘ynaydi. Beriladigan axborot tarjimasini retseptor tomonidan to‘liq tushunilishini ta’minlashdagi murakkablik asliyat matnda chet tilidagi umumhalq normalaridan chekinish bo‘lishi sababli yuzaga kelishi mumkin. Asliyat matnda aniqlanadigan chet tilining hududiy dialektlarining elementlari tarjimada berilmaydi. Asliyat matnda bu kabi dialekt shaklaridan foydalanish ikki xil xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Bir tomonidan, butun asliyat matn chet tilining qaysidir dialektida yozilgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda dialekt manba tomonidan ishlataladigan muloqot vositasi sifatida kelishi mumkin hamda undan tarjima qilish har qanday umummilliy tildagi kabi amalga oshiriladi. Boshqa tomonidan, dialekt shakllari alohida personajlarning til xarakteristikasini yoritish maqsadida ishlatalishi mumkin. Bunda tarjimada chet tilidagi dialektning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish hech qanday natija bermaydi, chunki tarjima retseptori uchun identifikasiya funksiyasini bajarmaydi va faqat ma’nisiz bo‘ladi. Tarjimada o‘zbek tilinining qaysidir hududiy shevasi shaklidan foydalanish mumkin emas, chunki ular umuman boshqa odamlardan o‘zbeklar guruxini identifikasiya qiladi.

Matnning mazmunini berish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Tilni yetarli darajada bilmaslik ma’lumotni buzib ko‘rsatishga turtki beradi. Tillararo muloqotni amalga oshirishda qo‘sishma pragmatik topshiriqlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi.

Chet elliqning nutqidagi o‘ziga xos xususiyatlarni yoritib berish murakkab vazifadir. Ba’zida tarjimada ma’noni berishning yangi usullarini topish zaruriyati tug‘iladi. Aksariyat hollarda tarjimon xuddi chaynagandek olingan axborotni soddalashtiradi. Natijada tarjimon faqat “quruq ma’noni” beradi, ya’ni emotsional-stistik aspektlarni tushirib qoldirgan holda faqat predmetli-mantiqiy mazmunini beradi.

Tarjimaning pragmatik maqsadi – tarjima retseptoriga kerakli ta’sirni o‘tkazishga erishish. Kerakli javobni ta’minlash qiyin masala. Ushbu holatda tarjimon tarjima retseptoring individual xususiyatlariga e’tibor qaratishi kerak bo‘ladi. Pragmatik jihatdan o‘ta muhim vazifaning alohida turi – tarjima matnini zamonaviylashtirishga harakat qilishdir.

**Asliyat matni:** The surgeon, the architect and the politician argued, whose profession the most ancient.

- Eve was made from Adam's edge. It is a surgery! – told the surgeon.
- But after all the God created the world from chaos! – the architect
- Don't forget – the politician interrupted their conversation – that someone organized this chaos at first!

**Tarjima matni:** Jarroh, arxitektor va siyosatchi kimning kasbi eng qadimi deb bahslashib qolishdi.

- Momo havo Odam atoning qovurg‘asidan yaratilgan, bu esa jarrohlik operasiyasi! – dedi jarroh.
- Lekin bunga qadar Xudo tartibsizlikdan tinchlikni yaratgan! – dedi arxitektor,
- Bu, adbatta, arxitektorning ishi...
- Esingizdan chiqarmang, - deya ularning gapini bo‘ldi siyosatchi, - kimdir bungacha tartibsizlikni tashkil qilganku!..

Asliyat matnida matnning pragmatik mazmuni presuppozitsiya yordamida yaratilmoqda. Presuppozitsiya asosan gapda muayyan til birliklarining ishorasi vositasida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So‘zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Tarjima matnida ham mana shunday pragmatik mazmunni xosil qilishda presuppozitsiyadan foydalanilmoqda. Presuppozitsiya asliyat matnidagi “that someone organized this chaos at first” birligi va uning tarjima matnidagi ifodasi “kimdir bungacha tartibsizlikni tashkil qilganku!” ifodasida namoyon bo‘lmoqda. Shu orqali asliyat matnidagi kulgi tarjima matniga ham olib o‘tilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asliyat matnida aks etgan nutq subyektlarining kommunikativ niyati va uning yashirin yoki oshkora shakllari tarjima matnida qayta ifodalaniishi kerak. Chunki nutqning yashirin yoki oshkora ifoda shakllari o‘z-o‘zidan kommunikativ strategiya shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, – 761 p.
2. Chairo D. Translation, Humour and Literature. – London, 2010. – 276 p.
3. Ko‘chiboyev A. Matn pragmatikasi. – Samarqand, 2015 – 194 b.



4. Macmillan For Advanced Learners. Printed and Bound in Malaysia, in 2010. – 1256 p.

5. Ross A. The language of humour. – London: Routledge, 1998. – 346 p.

6. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. –М: «Международные отношения», 1980. – 359 с.

7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.– 510 b.